



## XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr

VI-75-140-11-161-K/23

O'zbekiston tuman hokimligi

### O'zbekiston tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi 2023-yil 25-dekabrda O'RQ-886-son Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7 noyabrda 02-1160-sonli va Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27 dekabrda 03/01-02-01-18/4607-sonli xatlariga muvofiq hamda xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashining 2023-yil 27 dekabrda 63-sesiyasi VI-63-125-11-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, O'zbekiston tumani mahalliy budjetining 2024-yilgi daromadlari 149 377,8 mln.so'm va xarajatlari 252 193,2 mln.so'mga ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 142 663,2 mln.so'm miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonun bilan quyidagilar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi:

Soliq qo'mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining shahar budjetidan quyidagilar moliyalashtiriladi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining umumiy o'rta ta'lim

tashkilotlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, sog'liqni saqlash muassasalari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta'mirlash va jihozlashga, shuningdek sug'oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari doirasida obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta'mirlash hamda ta'mirlash ishlariga doir xarajatlar;

kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarni saqlash xarajatlari.

Quyidagi mahalliy budjetdan moliyalashtirib kelinayotgan xarajatlar:

kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalarini va moddiy yordamlarni to'lash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining tizim tashkilotlarini (bolalar va mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari) saqlash xarajatlari;

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarini, shuningdek suv omborlaridan foydalanish boshqarmalarini saqlash xarajatlari;

O'zini-o'zi boshqarish organlari (mahallalar)ni nodavlat notijorat tashkilot va budjetdan mablag' oluvchi sifatida saqlash xarajatlari respublika budjetidan moliyalashtirilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

#### 4. Quyidagilar:

tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1- ilovaga;

tuman budjetidan 2024-yilda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-2.1 ilovaga;

tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar meyorlari 3- ilovaga;

bunda, ajratma meyorlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi"ga viloyat G'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilsin;

viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 4- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 5- ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman budjeti shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining 2024-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 6- ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7- ilovaga, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**8.** Tuman budjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2024-yil uchun 2 236,3 mln.so'm miqdorida belgilansin.

Bunda, tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg'armasi tasdiqlangan umumiy xarajatlarning (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

tuman budjetining zaxira jamg'armasi mablag'larini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin;

mahalliy budjetni ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transferlarning prognozidan oshgan qismi uchun budjetning zaxira jamg'armasi miqdoriga aniqlashtirish kiritilmacligi nazarda tutilsin.

**9.** Qonun bilan xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar:  
yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'imlar;  
qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig'imlardan, g'ildirakli transport vositalari, o'ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig'imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to'lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat budjeti daromadiga o'tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo'yicha ajratmalar va dividendlar;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

tashqi reklama obyektlarini (konstruksiylarini) joylashtirish huquqini sotishdan tushgan tushumlar;

boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan budjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar budjetlariga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo hamda tamaki uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i; jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i; davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar hamda boshqa tushumlar (faqat 3 450 950-daromad kodi bo‘yicha) tuman budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlari tumandan 50 foizi;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalarning viloyat budjetiga 70 foizi tuman mahalliy budjetiga 30 foizi;

yakuniy iste‘molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlari tumanda 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) Farg‘ona shahrida 15 foizi hamda tumanda 50 foizi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlar tumandan 50 foizi;

yer uchastkalariga bo‘lgan xuquqlarni sotishdan tushgan tushum tumanda teng ulushlarda 50 foiz;

agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

**10.** Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Alijonov, tumaniqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sattorov), tuman soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) tuman hokimligibilan birgalikda 2024-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

**11.**Belgilansinki:

tuman hokimligi hamda mas'ul tashkilot va muassasalar tomonidan 2024-yilda budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

**12.** Tuman soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) soliq organi xodimlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishi hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

**13.** Majburiy ijro burosi O'zbekiston tuman bo'limi (Yo.Sheraliyev), tuman soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

**14.** Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi Bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra tumanda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini "E-ijro auksion" mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilganligi inobatga olinsin.

**15.** Tuman hokimligi O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tuman xududiy bo'limi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha

shartnomalar tuzsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishini ta'minlasin.

**16.** Tuman irrigatsiya bo'limi(R.Xomidov) va tuman soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin;

bunda, qishloq xo'jaligi korxonolari tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

**17.** Tuman ichki ishlar bo'limi(S.Abdullayev), adliya bo'limi(Sh.Tillayev)tumanda budjetga hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida to'liq mahalliy budjetga undirish choralari ko'rib borsinlar.

**18.** Tuman soliq inspeksiyasi (U.Fozilov), qishloq xo'jaligi bo'limi(M.Maxkamov) tuman hokimining birinchi o'rinbosari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining709-sonli qaroriga asosan qishloq xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetga undirish choralari ko'rsinlar.

**19.** Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Alijonov, tuman hokimligi hamda tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlari:

budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilarning budjet mablag'laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo'yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashiga kiritib borilishini ta'minlasin.

**20.** O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7 noyabrdagi 02-1160-sonli xati bilan yuborilgan xulosadan kelib chiqib:

Tibbiyotbirlashmasi (I.Axmedov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20 iyundagi PQ-197-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish dasturini amalga oshirish uchun ajratilayotgan budjet mablag'lari hisobidan kompyuter texnikalari sotib olish uchun xarajatlar smetasida mablag' nazarda tutish;

Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (G'.Ortiqov)O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25 maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq 2024-yil 1 yanvardan boshlab markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati xodimlarining bazaviy tarif stavka miqdorlari 1,5 baravarga oshirilganligi sababli shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tuzishda ajratilgan budjet mablag'lari doirasida zarur mablag'larni yo'naltirishni inobatga olinishini;

Tuman irrigatsiya bo'limi(R.Xomidov)O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20 iyundagi PF-101-sonli Farmoniga muvofiqsuv xo'jaligi tashkilotlarini moliyalashtirish darajasi o'zgarganligini inobatga olgan holda xarajatlar smetasini shakllantirishini ta'minlash;

Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) soliq inspeksiyasi (I.Sharopov) bilan birgalikda budjet oldidagi soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha boqimanda qarzdorliklarni undirish va budjet daromadlarini oshirish hamda xarajatlarni maqbullashtirish hisobiga respublika budjetidan ajratilgan uzoq muddatli ssudalarni qaytarish bo'yicha Xalq deputatlari tuman kengashiga taklif kiritilishini ta'minlasin.

**21.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan yig'ilish (15.11.2023yil, 36-son) bayonining 4.3-bandiga asosan 2024-yildan boshlab mahalliy budjetlar va rezident yuridik shaxslarga budjet ssudalari va budjet hisobidan qoplanadigan kredit mablag'larini ajratishni cheklash, zarur hollarda, ssudalarni mahalliy budjetlarga xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlari asosida ajratish amaliyoti joriy etilganligi inobatga olinsin.

**22.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27 dekabrda "Mahalla budjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-458-sonli qaroriga asosan 2024-yildan barcha hududlarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i uchun belgilanadigan prognoz ko'rsatkichlaridan kelib chiqib 10 foizini «Mahalla budjeti» jamg'armalarini shakllantirishga yo'naltirish ko'zda tutilganligi inobatga olinsin.

**23.** Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Alijonov, iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov), soliq inspeksiyasi (U.Fozilov) tuman hokimligi bilan birgalikda O'zbekiston tumanining 2024-yilgi mahalliy budjeti loyihasida belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

**24.** Belgilansinki, tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar dastlabki tarzda ushbu tadbirlarni umumlashtiruvchi tuman komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi, komissiya hulosasi xalq deputatlari tuman Kengashiga taqdim etib boriladi.

**25.** Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Alijonov, iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) bilan birgalikda mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi tuman komissiyasi ishini samarali tashkil etib borsin hamda tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari, jumladan daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismidan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha har chorak yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritilishini ta'minlasin.

**26.** Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov)ga Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasi bilan hamkorlikda budjetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

**27.** Tuman hokimligi, mas'ul tashkilot va muassasalar hamda hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar har chorakda budjet ma'lumotlarining ochiqligini ta'minlash hamda budjet shakllanishida va ijrosida jamoatchilik ishtirokini faollashtirish yuzasidan hududlarda

muhokamalar va tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish choralari ko'rsin.

**28.** Tuman hokimligi O'zbekiston Respublikasi "Budget kodeksi"ning 28-moddasida belgilangan budget sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatish.

**29.** Hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar har yili 15 yanvar kuniga qadar budget mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida mahalliy Kengashga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar:

o'z tasarrufidagi tizimda budget intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish; o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning jamlanma xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, jamlanma daromadlar va xarajatlar, daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budgetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budgetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

budgetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlar to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

davriy jamlanma moliyaviy hisobotlar to'g'ri shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishi uchun shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

**30.** Xalq deputatlari tuman Kengashiga:

mahalliy hokimlik, mas'ul tashkilot va muassasalar tomonidan 2024-yil uchun belgilangan budget daromadlari va xarajatlari ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlanishi, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilishi, budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishlari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli bo'yicha deputatlik nazoratini o'rnatish.

Bunda, amalga oshirayotgan ishlarini monitoring qilgan holda o'rganib borish, natijalarini mahalliy Kengashning tegishli doimiy komissiyalari yig'ilishlari hamda Kengash sessiyalarida mahokama qilish, soxa mas'ullari va tuman hokimligining mahalliy Kengash sessiyalarida axborotlarini tinglab borish tavsiya etilsin.

**31.** Tuman hokimligi axborot xizmati (D.Jabborov) soliq inspeksiyasi (U.Fozilov), iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi gazetada Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni e'lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkil etsin.

**32.** Mazkur qaror tahririyatda yoritilish tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy



veb-saytiga joylashtirilsin.

**33.** Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**34.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (A.Azamov) hamdatuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Alijonov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Ш.Юлдашев**

Xalq deputatlari O'zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
1-ilova

<b>Farg'ona viloyat O'zbekiston tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko'rsatkichlari</b>		
		ming so'mda
<b>№</b>	<b>Daromadlar nomi</b>	<b>O'zbekiston tumani</b>
<b>I.</b>	<b>Tartibga soluvchi daromadlar</b>	<b>36 150 000</b>
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	36 150 000
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	0
<b>II.</b>	<b>Biriktirilgan daromadlar</b>	<b>73 380 000</b>
	<b>To'liq tuman mahalliy byudjetiga</b>	<b>43 099 000</b>
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	12 705 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	1 275 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 390 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	17 521 000
5	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	208 000
	<b>Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar</b>	<b>30 281 000</b>
1	Qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	3 150 000
2	Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	7 835 600
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 300 500
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i	9 037 500
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 996 000
6	Jarimalar	1 961 400
<b>III.</b>	<b>Mahalliy byudjet daromatlari prognozi</b>	<b>109 530 000</b>
<b>IV.</b>	<b>O'tkazib beriladigan daromadlar</b>	<b>39 847 813</b>
	<i>Aholi soni (ming.kishi) 01.07.2021 holatiga</i>	233
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	17 272 729
15	Mobil aloqa xizmatini ko'rsatganlik uchun aksiz solig'i	6 957 490
16	Tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i	15 617 594
<b>V.</b>	<b>Mahalliy byudjetlarning jami daromatlari</b>	<b>149 377 813</b>
<b>VI.</b>	<b>Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar</b>	<b>142 663 190</b>

Xalq deputatlari O‘zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
2-ilova

**2024 yil uchun O‘zbekiston tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari  
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

ming so‘mda

<b>№</b>	<b>Xarajatlar - jami</b>	<b>252 193 190</b>
<b>1.</b>	<b>Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami</b>	<b>168 686 693</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
<b>1.1</b>	<b>Maorif</b>	<b>53 656 838</b>
	- maktabgacha ta‘lim	32 977 550
	- umumiy ta‘lim	20 679 288
1.2	Sog‘liqni saqlash	106 526 574
1.3	Madaniyat	1 602 530
1.4	Sport	6 694 894
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	27 600
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	178 257
<b>2.</b>	<b>Iqtisodiyotga xarajatlar</b>	<b>24 088 128</b>
	<i>shu jumladan:</i>	
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta‘mirlash xarajatlari	4 000 000
2.2	Obodonlashtirish	13 543 802
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	2 383 354
2.4	Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari	269 088
2.5	Veterinariya qo‘mitasi	1 931 485
2.6	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 960 399
<b>3.</b>	<b>Davlat boshqaruv organlarini saqlash</b>	<b>30 864 120</b>
<b>4.</b>	<b>Zahira jamg‘armasi</b>	<b>2 236 389</b>
<b>5.</b>	<b>Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi</b>	<b>26 317 860</b>

Xalq deputatlari O'zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
3-ilova



**O'zbekiston tumani mahalliy budjetidan 2024 yilgi hadudiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari**

		ming so'm
T/r	Tumanlar va shaharlar budjetlaridan mablag' oluvchi hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Summa
<b>1</b>	<b>Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi</b>	<b>49 657 684,0</b>
	shundan	
	Maktabgacha ta'lim muassasalari	32 977 550,0
	Umumiy o'rta ta'lim maktablari va ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari	16 680 134,0
<b>2</b>	<b>Tibbiyot birlashmasi</b>	<b>106 526 574,0</b>
<b>3</b>	<b>Madaniyat bo'limi</b>	<b>5 343 160,0</b>
	shundan	
	Madaniyat bo'limi xarajatlari	1 344 006,0
	Bolalar musiqa va san'at maktabi	3 999 154,0
<b>4</b>	<b>Yoshlar siyosati va sport bo'limi</b>	<b>13 275 496,0</b>
	shundan	
	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limlari saqlash xarajatlari	6 580 602,0
	Bolalar va o'smirlar sport maktablari	6 694 894,0
<b>5</b>	<b>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi</b>	<b>2 068 947,0</b>
<b>6</b>	<b>Qishloq xo'jaligi bo'limi</b>	<b>2 200 573,0</b>
	shundan	
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlarini saqlash xarajatlari	1 931 485,0
	Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari	269 088,0
<b>7</b>	<b>Irrigatsiya bo'limlarini saqlash xarajatlari</b>	<b>2 383 354,0</b>
<b>8</b>	<b>Iqtisodiyot va moliya bo'limlarini saqlash xarajatlari</b>	<b>1 596 432,0</b>
<b>9</b>	<b>Davlat soliq inspeksiyasi</b>	<b>5 576 727,0</b>
<b>10</b>	<b>Hokimiyat</b>	<b>63 564 243,0</b>
	shundan	
	Hokimliklarni saqlash xarajatlari	2 712 967,0
	Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	91 658,0
	Axborot kutubxona markazlari	371 671,0
	Hokimliklarning zahira jamg'armalari	2 236 389,0

	Fuqarolarning tashabbusli jamg'armalari	26 317 860,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	227 190,0
	Hokim yordamchilarini saqlash qarajatlari	7 358 163,0
	Mahalla budjeti	1 960 399,0
	Oila va xotin qizlar bo'limi	4 538 287,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"	27 600,0
	Hokimlik ijtimoiy ko'nikma markazi bo'limlari	178 257,0
	Tuman hududidagi xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, qishloqlar va ovullar ko'chalari yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash xarajatlari	4 000 000,0
	Tuman markazlarini, shahar tipidagi posyolkalar va boshqa aholi punktlarini obodonlashtirish	13 543 802,0
	<b>Jami</b>	<b>252 193 190,0</b>

Xalq deputatlari O'zbekiston tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son qaroriga  
4-ilova

**2024 yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi bo'yicha  
ajratma me'yorlari**

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i	Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jarimalar	Boshqa tushumlar (Faqat 3 450 950 daromad kodi bo'yicha)*
1	O'zbekiston tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100
* 3 450 950 daromad kodidan tashqari barcha boshqa tushumlarni hisobga oluvchi daromad kodlari bo'yicha kelib tushgan tushumlar viloyat mahalliy byudjetiga to'liq miqdorda yo'naltiriladi.															

Xalq deputatlari O‘zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
5-ilova

**O‘zbekiston tuman mahalliy byudjetining 2024 yilgi yuqori byudjetdan  
ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo  
transfertlar miqdori**

		ming so‘mda
<b>№</b>	<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Tartibga soluvchi transfert miqdori jami</b>
	<b>JAMI</b>	<b>142 663 190,0</b>
1	O‘zbekiston tumani	142 663 190,0

Xalq deputatlari O‘zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
6-ilova

**O‘zbekiston tuman mahalliy byudjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy  
hajmi**

			ming so‘mda
<b>№</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>
	<b>JAMI</b>	<b>109 530 000,0</b>	<b>252 193 190,0</b>
1	O‘zbekiston tumani	109 530 000,0	252 193 190,0



Xalq deputatlari O‘zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
7-ilova

**2024 yilda O‘zbekiston tuman mahalliy byudjetida aylanma kassa  
mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori**

ming so‘mda

<b>№ Hudud nomi</b>	<b>Miqdor</b>
<b>JAMI</b>	<b>920 000,0</b>
1 O‘zbekiston tumani	920 000,0

Xalq deputatlari O'zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
8-ilova

<b>Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar</b>				
				<b>ming so'mda</b>
<b>№</b>	<b>Shahar va tuman nomi</b>	<b>MFY lar nomi</b>	<b>Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)</b>	<b>Yer solig'i stavkasi 2024 yil uchun (1 ga uchun )</b>
1	O'zbekiston t	A.Jomiy	1,07	35 758
2	O'zbekiston t	Avg'on	0,89	29 798
3	O'zbekiston t	Begobod	0,80	26 640
4	O'zbekiston t	Beruniy	1,07	35 758
5	O'zbekiston t	Beshkapa	0,75	24 975
6	O'zbekiston t	Bog'i Eram	1,07	35 758
7	O'zbekiston t	Bozor Yaypan	1,07	35 758
8	O'zbekiston t	Buzuqqo'rgon	0,80	26 640
9	O'zbekiston t	Bo'ston	0,80	26 640
10	O'zbekiston t	Davlatbotir	0,75	24 975
11	O'zbekiston t	Darveshobod	0,75	24 975
12	O'zbekiston t	Daxana qaqir	0,89	29 798
13	O'zbekiston t	Dashtxasan	0,75	24 975
14	O'zbekiston t	Dasht-chulpon	0,80	26 640
15	O'zbekiston t	Dexqonobod	0,80	26 640
16	O'zbekiston t	Do'ngsaroy	0,80	26 640
17	O'zbekiston t	Do'stlik	0,75	24 975
18	O'zbekiston t	Jonobod	0,80	26 640
19	O'zbekiston t	Ziyo nursux	0,75	24 975
20	O'zbekiston t	Zinasha	0,75	24 975
21	O'zbekiston t	Islom	0,89	29 798
22	O'zbekiston t	Kichik tagob	0,89	29 798
23	O'zbekiston t	Qayqubod	0,80	26 640
24	O'zbekiston t	Qaynar	0,80	26 640
25	O'zbekiston t	Karimobod	0,80	26 640
26	O'zbekiston t	Katta qaynar	0,80	26 640
27	O'zbekiston t	Katta tagob	0,89	29 798
28	O'zbekiston t	Qirqketmon	0,80	26 640
29	O'zbekiston t	Kichik oqmachit	0,75	24 975
30	O'zbekiston t	Qorayobobo	0,80	26 640
31	O'zbekiston t	Qoratepa	0,80	26 640
32	O'zbekiston t	Qudash	0,89	29 798

33	O'zbekiston t	Ko'l elash	0,89	29 798
34	O'zbekiston t	Qulibek	0,89	29 798
35	O'zbekiston t	Qumbosti	0,89	29 798
36	O'zbekiston t	Qo'rgoncha	0,89	29 798
37	O'zbekiston t	Qushqunoq	0,85	28 305
38	O'zbekiston t	Qaynarbuloq	0,80	26 640
39	O'zbekiston t	Qudashobod	0,89	29 798
40	O'zbekiston t	Mevazor	0,80	26 640
41	O'zbekiston t	Naymansoy	0,80	26 640
42	O'zbekiston t	Namuna	0,80	26 640
43	O'zbekiston t	Nurli kelajak	0,75	24 975
44	O'zbekiston t	Nursux	0,89	29 798
45	O'zbekiston t	Obod kishlok	0,80	26 640
46	O'zbekiston t	Oqmachit	0,89	29 798
47	O'zbekiston t	Oqtepa	1,07	35 758
48	O'zbekiston t	Olmazor	0,75	24 975
49	O'zbekiston t	Oxta tagob	0,85	28 305
50	O'zbekiston t	Pastkiqo'riq	1,07	35 758
51	O'zbekiston t	Rajabgardi	0,89	29 798
52	O'zbekiston t	Sochtepa	0,80	26 640
53	O'zbekiston t	Taraqiyot	0,75	24 975
54	O'zbekiston t	Tinchlik	0,80	26 640
55	O'zbekiston t	Turkiston	1,07	35 758
56	O'zbekiston t	Tuyul	0,80	26 640
57	O'zbekiston t	O'qchi	0,80	26 640
58	O'zbekiston t	O'qchi tuman	0,80	26 640
59	O'zbekiston t	O'qchi-dasht	0,89	29 798
60	O'zbekiston t	Sulaymon	0,80	26 640
61	O'zbekiston t	Uchbo'lak	0,75	24 975
62	O'zbekiston t	Farovon kelajak	0,80	26 640
63	O'zbekiston t	Xaydarobod	0,80	26 640
64	O'zbekiston t	Xotamtov	0,80	26 640
65	O'zbekiston t	Shakarobod	0,89	29 798
66	O'zbekiston t	Shodlik	0,80	26 640
67	O'zbekiston t	Sho'r qishlok	0,80	26 640
68	O'zbekiston t	Sho'rsuv	0,89	29 798
69	O'zbekiston t	Elchi	0,75	24 975
70	O'zbekiston t	Eski Yaypan	1,07	35 758
71	O'zbekiston t	Yaypan Guzar	1,07	35 758
72	O'zbekiston t	Yakkatut	0,89	29 798
73	O'zbekiston t	Yangi hayot	0,80	26 640

Xalq deputatlari O'zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
9-ilova

**Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

№	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	so'mda
				Yer solig'i stavkasi 2024 yil uchun (1 kv uchun)
1	O'zbekiston t	A.Jomiy	1,00	316,0
2	O'zbekiston t	Avg'on	0,90	284,4
3	O'zbekiston t	Begobod	0,80	252,8
4	O'zbekiston t	Beruniy	1,00	316,0
5	O'zbekiston t	Beshkapa	0,80	252,8
6	O'zbekiston t	Bog'i Eram	1,00	316,0
7	O'zbekiston t	Bozor Yaypan	1,00	316,0
8	O'zbekiston t	Buzuqqo'rg'on	0,80	252,8
9	O'zbekiston t	Bo'ston	0,80	252,8
10	O'zbekiston t	Davlatbotir	0,80	252,8
11	O'zbekiston t	Darveshobod	0,80	252,8
12	O'zbekiston t	Daxana qaqir	0,90	284,4
13	O'zbekiston t	Dashtxasan	0,80	252,8
14	O'zbekiston t	Dasht-chulpon	0,80	252,8
15	O'zbekiston t	Dexqonobod	0,80	252,8
16	O'zbekiston t	Do'ngsaroy	0,80	252,8
17	O'zbekiston t	Do'stlik	0,80	252,8
18	O'zbekiston t	Jonobod	0,80	252,8
19	O'zbekiston t	Ziyo nursux	0,80	252,8
20	O'zbekiston t	Zinasha	0,80	252,8
21	O'zbekiston t	Islom	0,90	284,4
22	O'zbekiston t	Kichik tagob	0,90	284,4
23	O'zbekiston t	Qayqubod	0,80	252,8
24	O'zbekiston t	Qaynar	0,80	252,8
25	O'zbekiston t	Karimobod	0,80	252,8
26	O'zbekiston t	Katta qaynar	0,80	252,8
27	O'zbekiston t	Katta tagob	0,90	284,4
28	O'zbekiston t	Kirqetmon	0,80	252,8
29	O'zbekiston t	Kichik oqmachit	0,80	252,8
30	O'zbekiston t	Qorayozbobo	0,80	252,8

31	O'zbekiston t	Qoratepa	0,80	252,8
32	O'zbekiston t	Qudash	0,90	284,4
33	O'zbekiston t	Ko'l elash	0,90	284,4
34	O'zbekiston t	Qulibek	0,90	284,4
35	O'zbekiston t	Qumbosti	0,90	284,4
36	O'zbekiston t	Qo'rg'oncha	0,90	284,4
37	O'zbekiston t	Qushqunoq	0,90	284,4
38	O'zbekiston t	Qaynarbuloq	0,80	252,8
39	O'zbekiston t	Qudashobod	0,90	284,4
40	O'zbekiston t	Mevazor	0,80	252,8
41	O'zbekiston t	Naymansoy	0,80	252,8
42	O'zbekiston t	Namuna	0,80	252,8
43	O'zbekiston t	Nurli kelajak	0,80	252,8
44	O'zbekiston t	Nursux	0,90	284,4
45	O'zbekiston t	Obod qishloq	0,80	252,8
46	O'zbekiston t	Oqmachit	0,90	284,4
47	O'zbekiston t	Oqtepa	1,00	316,0
48	O'zbekiston t	Olmazor	0,80	252,8
49	O'zbekiston t	Oxta tagob	0,90	284,4
50	O'zbekiston t	Pastkikqo'riq	1,00	316,0
51	O'zbekiston t	Rajabgardi	0,90	284,4
52	O'zbekiston t	Sochtepa	0,80	252,8
53	O'zbekiston t	Taraqiyot	0,80	252,8
54	O'zbekiston t	Tinchlik	0,80	252,8
55	O'zbekiston t	Turkiston	1,00	316,0
56	O'zbekiston t	Tuyul	0,80	252,8
57	O'zbekiston t	O'qchi	0,80	252,8
58	O'zbekiston t	O'qchi tuman	0,80	252,8
59	O'zbekiston t	O'qchi-dasht	0,90	284,4
60	O'zbekiston t	Sulaymon	0,80	252,8
61	O'zbekiston t	Uchbo'lak	0,80	252,8
62	O'zbekiston t	Farovon kelajak	0,80	252,8
63	O'zbekiston t	Xaydarobod	0,80	252,8
64	O'zbekiston t	Xotamtov	0,80	252,8
65	O'zbekiston t	Shakarobod	0,90	284,4
66	O'zbekiston t	Shodlik	0,80	252,8
67	O'zbekiston t	Sho'r kishlok	0,80	252,8
68	O'zbekiston t	Sho'rsuv	0,90	284,4
69	O'zbekiston t	Elchi	0,80	252,8
70	O'zbekiston t	Eski Yaypan	1,00	316,0
71	O'zbekiston t	Yaypan Guzar	1,00	316,0
72	O'zbekiston t	Yakkatut	0,90	284,4

---

73	O'zbekiston t	Yangi hayot	0,80	252,8
----	---------------	-------------	------	-------

Xalq deputatlari O'zbekiston  
tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrdagi  
VI-75-140-11-161-K/23-son  
qaroriga  
10-ilova

**Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish o'tkazuvchi  
organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1  
kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan  
kiritilayotgan kamaytiruvchi  
koeffitsiyentlar**

<b>№</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Koeffitsiyent (0,5 dan )</b>	<b>Minimal miqdor 2024 yil uchun (ming.so'm)</b>
1	O'zbekiston tumani	0,85	1 020,0